



Researcher, National Institute of Pedagogical Excellence named after Abdulla Avloni

Elbek JUMAEV¹

National Institute of Pedagogical Excellence named after Abdulla Avloni

ARTICLE INFO

Article history:

Received September 2025

Received in revised form

5 September 2025

Accepted 10 October 2025

Available online

25 October 2025

Keywords:

Personality,
personalized education,
educational technologies,
pedagogical process

ABSTRACT

This article describes types of student-centered educational technologies, their advantages, and their applications in the pedagogical process.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss10/S-pp40-44>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Zamonaviy ta'lim texnologiyalari va uning o'ziga xos xususiyatlari

Kalit so'zlar:

Shaxs,
shaxsga yo'naltirilgan ta'lim,
ta'lim texnologiyalari,
pedagogik jarayon

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shaxsga yo'naltirilgan yondashuvga asoslangan pedagogik texnologiyalar turlari, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining afzalliklari hamda ulardan pedagogik jarayonlarda foydalanish masalalari yoritib berilgan.

Современные образовательные технологии и их особенности

Ключевые слова:

Личность,
персонализированное
образование,
образовательные
технологии,
педагогический процесс

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены виды педагогических технологий, основанных на личностно-ориентированном подходе, преимущества личностно-ориентированных образовательных технологий и их использование в педагогическом процессе.

¹ Researcher, National Institute of Pedagogical Excellence named after Abdulla Avloni.

Ta'lim tizimiga zamonaviy ta'lim texnologiyalarning joriy etilayotgani ayni paytda keng ko'lamli axborotlar oqimi ta'lim mazmunini muntazam yangilab va takomillashtirib borishni taqozo etadi. Ta'lim sohasidagi davlat siyosatini ro'yobga chiqarish, kadrlar tayyorlashda yagona davlat talablari asosida o'quv-tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'quv-adabiyotlari bilan ta'minlash, pedagoglarga uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish vazifasini amalga oshirish muhim vazifalardan biridir.

Bilim qanchalik mustahkam bo'lsa, inson dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Ta'lim – tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, avvalo, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirishni talab etadi. Chunki uni amalga oshirmay turib qo'llangan har qanday texnologiya kutilgan samarani bermaydi.

Hozirgi vaqtda o'qituvchi tayyor elektron resurslar yordamida dars o'tish bilan chegaralanmasdan balki, ta'limiy resurslarni yaratish hamda uni amalda qo'llovchi o'qitishning zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan samarali foydalanish fan va uning tarkibiga kiruvchi bilimlar mazmunini talabalarga yetkazish malakasiga ega shaxs sifatida faoliyat olib borishi lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonining doimiy ravishda takomillashib borishi dars berish jarayonida qo'llanilayotgan yangi va takomillashib borayotgan pedagogik texnologiyalarni turli yo'nalish va maqsadlarda qo'llanilayotganligiga bog'liq. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy turlaridan biri sifatida shaxsga yo'naltirilgan ta'limni keltirib o'tish mumkin.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi talaba shaxsini butun bir ta'lim tizimining markaziga qo'yadi va unga tabiatan berilgan o'z qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun shart-sharoit yaratadi. Talaba shaxsi bu texnologiyada nafaqat subyekt, balki keng imkon berilgan subyekt bo'lib, u ta'lim tizimidagi asosiy bo'lmagan maqsadlarga erishish vositasi emas, balki uning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Pedagog olimlar tomonidan ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asoslangan pedagogik texnologiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, u quyidagilardan iborat:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim;
- hamkorlik ta'limi;
- adaptiv muloqot pedagogik texnologiyasi;
- o'yin texnologiyasi;
- rivojlangan ta'lim texnologiyasi;
- muammoli ta'lim texnologiyasi;
- differensial ta'lim;
- modulli ta'lim texnologiyasi;
- individual ta'lim texnologiyasi va boshqalar.

Ushbu yo'nalishlarning har birida ta'lim talaba shaxsining qiziqishi, qobiliyati, imkoniyati va shart-sharoitlari e'tiborga olinib tashkil etiladi. Ayniqsa, shaxsga

yo'naltirilgan ta'limda talabada mustaqil fikrlash orqali muammoli vaziyatlardan chiqishga intilish malakasini shakllantirishga alohida urg'u beriladi. Mustaqil o'qib-o'rganish, o'quv jarayonidagi qiyin vaziyatlarda o'qituvchining yordamisiz muammolarni hal qilishga urinish, shundan keyingina o'zining xulosalari to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun o'qituvchining yordamiga tayanish zarurligini anglatish muhimdir.

J.Yo'ldoshev, S.Usmonovlarning fikricha shaxsga yo'naltirilgan ta'lim - talabaga individual yondashuv hamda pedagogik jarayon asosidagi pedagogik texnologiyalar turi sifatida e'tirof etilgan. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda shaxsning xususiyat va sifatlarini ham e'tiborga olish lozimligi ta'kidlangan.

Amaliyotga keng ko'lamda joriy etilayotgan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarga qo'yiladigan asosiy talablar olimlar tomonidan quyidagicha e'tirof etilgan:

- ma'lum ilmiy konsepsiyaga asoslanganlik;
- tizimlilik – pedagogik jarayon va uning tarkibiy qismlarining yaxlit o'zaro bog'liqligi;
- maqbullilik – davlat ta'lim standartlari yoki talablari darajasida axborot hajmi va darajasiga maksimal yaqinlashtirish;
- natijalarini imkon qadar barqarorlashtirish;
- boshqa ishtirokchilar tomonidan qayta amalga oshirish mumkinligi, ya'ni tiklanuvchanlik kabilar.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o'ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalariga dolzarb muammo sifatida e'tibor berilayotganligining sabablari:

- birinchidan, ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirish imkoniyatlarining kengligi;
- ikkinchidan, pedagogik jarayonga tizimli-faoliyat yondashuvini keng joriy etish imkoniyatini berishi;
- uchinchidan, o'qituvchini pedagogik jarayonning maqsadidan boshlab, olingan natijani nazorat qilib, baholashgacha va zarur hollarda kerakli tuzatishlar kiritishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab olishi;
- to'rtinchidan, faollashtirish omillariga asoslanganligi bois ko'zda tutilgan maqsadga yaqin natija olish imkonini berishi kabilar.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirishda quyidagi afzalliklar namoyon bo'ladi:

- talaba real muammoli vaziyatlarni yechishda topshiriqlarni mustaqil rejalashtirish va amalga oshirish kabi ishharakatlarga asoslangan kasbiy faoliyatga yo'naltirilganligi;

- ish-harakatlar talabaning dastlabki to'plagan bilim, ko'nikma va malakalariga asoslanlanligi;
- talabaning o'zlashtirish imkoniyatlari darajasida mustaqil harakatga yo'naltirilganligi;
- muayyan kasbiy harakatlarni o'rganish va natijalarni nazariy bilimlar emas, balki sinov yordamida o'zlashtirilishi;
- talabalarning mustaqil ishbilarmonlik fazilatlarini, kasbiy va shaxsiy muhim sifatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ish-harakatlarning amalga oshirilganligi.

Shu o'rinda shuni alohida e'tiborga olish kerakki, shaxsga yo'naltirilgan ta'limda pedagogik jarayonning markazida talaba bo'lishi muhimdir. Biroq, bunda o'qituvchi ham jarayonning teng nufuzli ishtirokchisi hisoblanib, ishtirokchilarning birini ikkinchisiga nisbatan yuqori nufuzga ega deb e'tirof etish o'ziga xos bir yoqlamalikka olib keladi. Ular orasidagi ongli o'zaro hamkorlik, o'zaro muloqot, o'zaro munosabat, ularning bir-biriga ko'rsatadigan aks ta'sirlarini hisobga olish zarur.

O'qituvchi biror hodisani uzoq vaqt tushuntirish o'rniga talabaga darslikdagi ma'lum mavzuni mustaqil o'qib-o'rganishga, mavzu yuzasidan berilgan amaliy tajribalarni mustaqil bajarish, o'quv natijalarini tekshirish uchun test savollariga mustaqil javob tayyorlashni topshirishi ijobiy natija beradi. Agar talaba o'z o'quv faoliyatining mohiyatini ko'ra olmasa, u o'quv maqsadini tan olmaydi, o'qituvchi qo'ygan vazifalarni tushunmaydi va qabul qilmaydi. Shuning uchun o'quv materiali mazmuni avval o'qituvchi tomonidan ijobiy o'zlashtirilib, qayta ishlanib, undan talabani qiziqtiradigan, shaxsiy tajribasiga mos kelib, fikrini qo'zg'aydigan, hayajonga soladigan xos jihatlar belgilab yetkazilgandagina natijasi samarali bo'lishi isbotlangan. Ana shundagina talaba o'zini ushbu hodisalarning bevosita ishtirokchisi va ijodkori deb hisoblaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. Abduqudusov O.A, Rashidov H.F. Kasb-hunar pedagogikasi. Toshkent. O'MKHTTKMO va UQTI, 2010 -270 bet
2. Alimov A.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida innovasion faoliyatga tayyorlash Avtoref. dis. ... PhD. - T. 2018. B-50.
3. Акрамов Х. М., Парпиев О. Т. Педагогические технологии как основа развития познавательной деятельности студентов //Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития. – 2014. – Т. 12. – №. 2. – С. 12-13.
4. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: qo'llanma. – Toshkent.: O'qituvchi, 2004. – 104 b.

5. Парпиев О. Т. и др. Учебные образовательные технологии в педагогической деятельности // Экономика и социум. – 2021. – №. 5-2 (84). – С. 168-171.
6. Парпиев О. Т. Использование педагогических игр как фактор повышения эффективности обучения // Молодой ученый. – 2011. – №. 12-2. – С. 127-129.
7. Парпиев О. Т. Построение учебного процесса в системе повышения квалификации педагогических кадров // Молодой ученый. – 2015. – №. 21. – С. 822-823.
8. Sharipov Sh.S. O'quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta'minlashning nazariyasi va amaliyoti: Avtoref.dis. ... p.f.n. - T. 2012. B-48.
9. Парпиев О. Т. Использование педагогических игр как фактор повышения эффективности обучения // Молодой ученый. – 2011. – №. 12-2. – С. 127-129.